

# YASHIL

**IQTISODIYOT & TARAQQIYOT**

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№9**

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTER

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 34 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari  
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi  
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



# YASHIL

## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                          |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning<br>chakana sotuvga real ta'siri ..... | 14 |
| <b>Abdulaziz Madjidov</b>                                                                                                |    |
| Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli .....                                    | 22 |
| <b>Imamova Nilufar Asamutdinovna</b>                                                                                     |    |
| Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan<br>foydalanish holati.....                   | 29 |
| <b>Xidirov Sherzod Olimovich</b>                                                                                         |    |



# TA'LIM XIZMATLARI BOZORI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TA'LIM KLASTERLARINING ROLI

**Imamova Nilufar Asamutdinovna**

TDSHU, Xalqaro reytinglar bilan ishlash

bo'limi boshlig'i, mustaqil izlanuvchi

E-mail: [nilufar\\_imamova@tsuos.uz](mailto:nilufar_imamova@tsuos.uz)

ORCID - 0000-0001-9723-5348

**Annotatsiya:** Maqolada xizmatlar sohasi, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi va undagi ta'lim xizmatlarining ulushi, ta'lim xizmatlari bozorining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, rivojlanish tendensiyalari va uning samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ta'lim klasterlarining raqobatbardoshlikni oshirish, mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash hamda hududiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** xizmatlar bozori, ta'lim xizmatlari, milliy iqtisodiyot, samaradorlik, ta'lim klasteri, raqobatbardoshlik, innovatsiya.

**Abstract:** The article analyzes the service sector, the volume of market-provided services and the share of educational services within it, as well as the role of the education services market in the national economy, its development trends, and the role of educational clusters in enhancing efficiency. Furthermore, the study highlights the significance of educational clusters in increasing competitiveness, training specialists in line with labor market requirements, supporting innovation, and ensuring regional sustainability.

**Key words:** service market, educational services, national economy, efficiency, educational cluster, competitiveness, innovation.

**Аннотация:** В статье анализируются сфера услуг, объем предоставленных рыночных услуг и доля образовательных услуг в них, а также место рынка образовательных услуг в национальной экономике, тенденции его развития и роль образовательных кластеров в повышении эффективности. Кроме того, рассматривается значение образовательных кластеров в повышении конкурентоспособности, подготовке кадров в соответствии с требованиями рынка труда, поддержке инновационного развития и обеспечении региональной устойчивости.

**Ключевые слова:** рынок услуг, образовательные услуги, национальная экономика, эффективность, образовательный кластер, конкурентоспособность, инновация.

## KIRISH

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, axborotlashgan, bilimlarga asoslangan jamiyatga o'tish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish hamda raqobatbardoshligini ta'minlashda xizmatlar sohasini, xususan, ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirish muhim vazifalardan sanaladi. Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida ta'lim xizmatlari bozori milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim xizmatlari bozori nafaqat jamiyatning bilim olish ehtiyojlarini qondiradi, balki inson kapitalini shakllantirish, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, ta'lim xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish mexanizmlarini izlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardandir.

Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirish jarayonlarida ta'lim klasterlari faoliyati alohida o'rin tutadi. Ta'lim klasteri – bu markzada yadro OTM bo'lgan turli darajadagi ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, ishlab chiqarish korxonalari hamda davlat boshqaruv organlarining o'zaro integratsiyasi asosida yo'lga qo'yiladigan faoliyat shakli bo'lib, u ta'lim jarayonini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirishga, innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishga va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Ushbu faoliyat shakli ta'lim xizmatlari bozorida klasterlash mexanizmlarini joriy etish, uning samaradorligini oshirish, sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash hamda ta'limni milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanish omiliga



aylantirish imkonini beradi. Shu bois, ushbu mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish va aniq xulosalar ishlab chiqish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mazkur tadqiqot yo'nalishida turli olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Xususan, ta'lim xizmatlari bozorida universitetlarning o'rni, ularning bir vaqtning o'zida bir qancha funksiyalarni bajara olmaslik holatidan kelib chiqib, ixtisoslashuvni amalga oshirishlariga ko'ra ularni klassik universitetlar, tadbirkorlik, ilmiy tadqiqot, korporativ, tarmoqli, virtual universitetlarga ajratish mumkinligi tadqiqotchi V.S. Efimov tomonidan<sup>1</sup>; oliy ta'lim tizimining pirovard natijadagi samaradorligini ta'minlashga ta'lim xizmatini ko'rsatuvchilar o'rtasidagi, sifatli ta'lim xizmatidan foydalanish bo'yicha iste'molchilar o'rtasidagi, ayni vaqtda, ta'lim xizmatini taklif etuvchilar va uning talabgorlari o'rtasidagi o'zaro raqobat kurashlari oqibatida ta'minlanishi bo'yicha<sup>2</sup> hamda xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, bozor munosabatlarining rivojlanishi ko'p jihatdan xizmatlar sektori taraqqiyotiga bog'liqligi, xizmatlar iqtisodiyotining shakllanganligi bozor munosabatlarining qaror topganligini bildiruvchi muhim belgilaridan biri ekanligi haqida<sup>3</sup> N.To'xliyev va boshqa iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Shuningdek, A.A.Khamidova, B.Sh.Musayev, J.G'afforovlar<sup>4</sup> ta'lim xizmatlari bozori, ularning raqamli iqtisodiyot sharoitida takomillashuvi bo'yicha, aynan soha va tarmoq klasterlari, ta'lim klasterlari va ularning samaradorlik omillari bo'yicha esa, M.Delgado, M.Xudoyqulov, I.S.Ochilov hamda B.Usmonov<sup>5</sup> va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xizmatlar sohasida ko'rsatilgan jami bozor xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari, undagi ta'lim xizmatlarini o'rni, ta'lim klasterining ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ochib berish maqsad qilingan. Tadqiqotda tizimli tahlil, statistik kuzatuv, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalarini, ularning dinamikasini tahlil qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari tahlilidan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasi muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biri bo'lib, u aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun ko'rsatiladigan barcha xizmatlarni, xususan, savdo va vositachilik, transport va logistika, aloqa va axborot-kommunikatsiya, moliyaviy xizmatlar, ta'lim xizmatlari, mehmonxona va restoran (turizm) xizmatlari, madaniyat, sport va ko'ngilochar xizmatlar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, uy-joy va kommunal xizmatlar, shaxsiy va boshqa turdagi xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar o'z vazifasiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi: Moddiy xizmatlar va Ijtimoiy-madaniy xizmatlar.

Moddiy xizmatlar iste'molchilarning moddiy-maishiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xizmatlardir. Ularga uy-joy-kommunal xizmatlari, buyumlarni yasash va ta'mirlash ishlari, savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari, transport xizmatlari kiradi.

Ijtimoiy-madaniy xizmatlar nomoddiy xizmatlar hisoblanadi. Ular iste'molchining ma'naviy, intellektual ehtiyojlarini, ularning me'yoridagi turmush kechirishini ta'minlashga yo'naltirilgan xizmatlar bo'lib, tibbiy xizmatlar, madaniyat, turizm va ta'lim xizmatlari shular jumlasidandir<sup>6</sup>.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tadqiqotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2017–2024-yillarda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmi 2,5 baravarga ortib, soha yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2017-yildagi 38,1 foizdan 47,4 foizga ko'tarildi. Bu ko'rsatkich xizmatlar sektori iqtisodiyotdagi o'rni va ta'siri oshib borayotganini

1 Типология университетов, модели и инструменты организационного развития. Под ред. В.С. Ефимова. – Красноярск : Сиб. федер. ун-т, 2018. – 52 с.

2 Н.Тўхлиев., Қ.Қуролов. Ўзбекистонда олий таълим тизими ривожланиши миқдор ва сифат баҳолаш /Монография/ "Ilm-Ziyo-Zakovat" нашриёти, Тошкент – 2018. 128 б.

3 To'xliyev N., Xolmatov N., Ermamatov Sh., Xaqberdiyev Q. O'zbekiston iqtisodiyoti. Darslik. T.: O'zbekiston, 2018.-488 b.

4 A.A. Khamidova. Organizational-economic mechanism of educational services market development. Journal of Humanity and Intelligence. № 02/06. 2023. 317-319 p., J.G'afforov. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim xizmatlari sohasining umumiy ko'rinishi. Iqtisodiyot va ta'lim, 25(2), 270–274., B.SH.Musayev. Oliy ta'lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ'ib qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand – 2024. 28 b.

5 И.С.Очилов. Кластер тизимида инновацион самарадорлик масалалари. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журналы. № 2, март-апрель, 2019 йил. 1-9 б., Delgado, M. (2020). The Co-location of Innovation and Production in Clusters. Industry and Innovation, 27(8), 842-870., M.Худойқулов. (2024). Кластер тизимининг иқтисодий ва технологик жараёнларини самарали шакллантириш тамойиллари. Iqtisodiyot va ta'lim, 25(2), 256–263., Инновациялар ва кластерлаштириш иқтисодий тараққиёт кафолати / Б.Усмонов, Ф.Раҳимов, У.Шукуриллаев. – Тошкент : KALEON PRESS, 2022. – 176 б.

6 To'xliyev N., Xolmatov N., Ermamatov Sh., Xaqberdiyev Q. O'zbekiston iqtisodiyoti. Darslik. T.: O'zbekiston, 2018.-488 b.





yaqqol tasdiqlaydi. Sohadagi investitsion faollik ham sezilarli darajada oshdi — 2017-yildan 2024-yilgacha xizmatlar sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2,2 baravarga o'sib, 112,6 trln. so'mni tashkil etdi. Bu esa, ushbu segmentni mahalliy va xorijiy investorlar uchun jozibador maydonga aylantirdi. Xizmatlar sohasining asosiy tarkibiy qismlari — savdo, transport, moliya, turar-joy va ovqatlanish xizmatlari hisoblanadi. 2024-yilda bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi bo'yicha: turar-joy va ovqatlanish xizmatlari — 22,4 foiz, savdo xizmatlari — 18,6 foiz, transport xizmatlari — 17,7 foiz, moliyaviy xizmatlar — 16,5 foizni tashkil qildi. Qolgan muhim yo'nalishlar orasida axborot va aloqa 6,9 foiz, ta'lim 3,9 foiz va boshqa turdagi ijtimoiy xizmatlar alohida o'rin tutadi<sup>7</sup>.

Hududlarda xizmatlar infratuzilmasining takomillashtirilishi, aholi sonining, aholi daromadlarining o'sishi hamda xizmatlar sohasidagi bozor xizmatlari turlarini differentsatsiyasi, diversifikatsiyalashuvi jarayonlarini amalga oshirilishi natijasida xizmatlar sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi yildan-yilga ortib borayotganligini ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Xizmatlar sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (hududlar kesimida - yillik)<sup>8</sup> mlrd.so'm hisobida

| Hududlar                      | 2014    | 2016    | 2018     | 2020     | 2022     | 2024     |
|-------------------------------|---------|---------|----------|----------|----------|----------|
| O'zbekiston Respublikasi      | 68032,1 | 97050   | 150889,8 | 219978,5 | 366891   | 827659,5 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 2148,1  | 3100,5  | 4600,2   | 6520,3   | 10595,3  | 28538,3  |
| Andijon viloyati              | 4009,1  | 5765,9  | 8011,5   | 11413    | 17804    | 42241,7  |
| Buxoro viloyati               | 3045,6  | 4756,1  | 6631,6   | 9843,1   | 15848,8  | 34071,7  |
| Jizzax viloyati               | 1324,5  | 2155,3  | 3283,2   | 5024,7   | 8127,3   | 19745,4  |
| Qashqadaryo viloyati          | 3391,1  | 5137,6  | 7064,1   | 10349,5  | 15967,7  | 43221,1  |
| Navoiy viloyati               | 1763,1  | 2593,8  | 3925,6   | 5840,5   | 9322,8   | 20646,2  |
| Namangan viloyati             | 2961,2  | 4408,1  | 6067,7   | 8928,6   | 14693,4  | 43502,6  |
| Samarqand viloyati            | 5065,9  | 7200,5  | 10043,5  | 14086,1  | 22953,6  | 59604,1  |
| Surxondaryo viloyati          | 2471,4  | 3845,3  | 6079,6   | 8013,9   | 12838,4  | 28381,8  |
| Sirdaryo viloyati             | 915,8   | 1355,6  | 2031,4   | 3303     | 5018,8   | 11789    |
| Toshkent viloyati             | 5529,5  | 8112,9  | 11292,9  | 16438,3  | 25919,7  | 56518,1  |
| Farg'ona viloyati             | 4472,8  | 6670,7  | 9237,9   | 13694,4  | 22131,8  | 55547,7  |
| Xorazm viloyati               | 2190,7  | 3119    | 4562,8   | 6461,2   | 10480,4  | 28720,3  |
| Toshkent shahri               | 19779,7 | 29472,7 | 50176,2  | 79879,3  | 144533,7 | 305277,2 |

Mazkur jadval tahlili bo'yicha 2014–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi izchil o'sib borgan. 2014-yilda 68,0 trln. so'mni tashkil etgan umumiy ko'rsatkich, 2024-yilga kelib, 827,7 trln. so'mga yetgan bo'lib, bu 12 barobardan ortiq o'sishni anglatadi. Bu jarayon mamlakatda xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi ulushi tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida katta o'sish Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi, mazkur hududda bozor xizmatlari hajmi 10 yil davomida 19779,7 mlrd. so'mdan 305277,2 mlrd. so'mga oshgan. Bu markaz hudud sifatidagi iqtisodiy faollik, aholi zichligi, aholi daromadlarining nisbatan yuqoriligi, ta'lim, moliyaviy xizmatlar hamda infratuzilma darajasining rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Toshkent viloyati, Samarqand, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida ham xizmatlar ko'lamini keskin oshgan. Masalan, Farg'ona viloyatida bu ko'rsatkich 4472,8 mlrd. so'mdan 55547,7 mlrd. so'mga yetgan.

Aholi soni nisbatan kam bo'lgan hududlarda — masalan, Sirdaryo viloyatida nisbatan past ko'rsatkichlar kuzatiladi. 2014-yildagi 915,8 mlrd. so'mlik hajm, 2024-yilda 11789 mlrd. so'mga oshgan bo'lsa-da, boshqa viloyatlarga nisbatan sezilarli orqada qolmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Jizzax viloyatlarida ham o'sish kuzatilgan bo'lishiga qaramasdan, ular bozor xizmatlari bo'yicha respublika o'rtacha darajasidan past ko'rsatkichlarni qayd etmoqda. Bu hududlarda

<sup>7</sup> <https://review.uz/oz/post/infografika-razvitie-sfer-uslug-v-uzbekistane-v-20172024-gg>

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)





xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish, aholi bandligini oshirish va investitsiyalar oqimini kuchaytirish bo'yicha vazifalar muhim masala bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, 2014–2024-yillar davomida barcha hududlarda xizmatlar sohasida o'sish qayd etilgan bo'lib, bu milliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, mintaqalar o'rtasida mavjud tafovutlarni kamaytirish va kam rivojlangan hududlarda xizmatlar salohiyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha strategik chora-tadbirlar ham talab etiladi.

Jami ko'rsatilgan bozor xizmatlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim xizmatlari bozori boshqa turdagi xizmatlarga nisbatan samaradorlik natijalari bir muncha pastroq ko'rsatkichlarni namoyon etmoqda (2-jadval).

2-jadval. Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi (yillik, hududlar kesimida) mlrd.so'm hisobida

|                          | 2020   | 2021    | 2022    | 2023    | 2024    |
|--------------------------|--------|---------|---------|---------|---------|
| O'zbekiston Respublikasi | 8539,4 | 12102,5 | 15858,4 | 24533,1 | 31975   |
| Andijon viloyati         | 473,3  | 631,3   | 951,1   | 1258,2  | 1573,6  |
| Buxoro viloyati          | 517,3  | 723,6   | 773,3   | 1243,7  | 1619,5  |
| Jizzax viloyati          | 232,4  | 333,1   | 412,9   | 500,5   | 480,7   |
| Qashqadaryo viloyati     | 373,3  | 498,4   | 647     | 973,1   | 1282,9  |
| Navoiy viloyati          | 209,3  | 273,8   | 360,2   | 566,3   | 436,3   |
| Namangan viloyati        | 402,4  | 575,8   | 743,2   | 1140,1  | 1600,1  |
| Samarqand viloyati       | 694,2  | 1003,5  | 1202    | 1994,7  | 2594,7  |
| Surxondaryo viloyati     | 323,3  | 481,5   | 673,5   | 787     | 846,8   |
| Sirdaryo viloyati        | 138,9  | 199,2   | 213,8   | 260,3   | 309,3   |
| Toshkent viloyati        | 401,3  | 512,6   | 650,6   | 1001    | 1746,2  |
| Farg'ona viloyati        | 564,3  | 950,5   | 1066,8  | 1451,4  | 1754,3  |
| Xorazm viloyati          | 315,4  | 375,9   | 575,2   | 733,6   | 884,9   |
| Toshkent shahri          | 3524,8 | 4975,1  | 6894,7  | 11812,1 | 15922,6 |

Mazkur holatlarga sabablar sifatida quyidagilarni, xususan, ta'lim sohasiga xususiy kapital va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning nisbatan kamligi, asosiy moliyalashtirish manbai davlat byudjeti bo'lib qolishi, ta'lim xizmatlari asosan ijtimoiy xarakterga ega ekanligi, narx mexanizmlari boshqa xizmat turlari (masalan, transport, turizm, savdo) kabi nisbatan erkin shakllanmasligi, aholining ma'lum qismida pullik ta'lim xizmatlarini xarid qilish imkoniyatining cheklanganligi, ta'lim xizmatlaridan olinadigan natijalar (kadrlar sifati, inson kapitali) uzoq muddatda namoyon bo'lishi, shu sababli qisqa muddatda iqtisodiy samaradorlikning nisbatan past ko'rinishi, xususiy ta'lim muassasalari soni oshib borayotgan bo'lsa-da, ularning bozorga ta'siri nisbatan cheklanganligi, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'lamiga keng masshtabda emasligi, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi sharoitida ta'lim xizmatlarining sifati mehnat bozori talablaridan nisbatan ortda qolishi kabi muammoli vaziyatlarni keltirish mumkin.

Shu bois, bu sohada strategik takomillashgan yondashuvlarni, xususan, klasterlash mexanizmlarini joriy etish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur 2-jadval bo'yicha 2020–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasida ta'lim xizmatlari bozorida barqaror o'sish kuzatilganini ko'rish mumkin. Agar 2020-yilda umumiy xizmatlar hajmi 8,5 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 31,9 trln. so'mga yetgan, ya'ni deyarli 4 barobar o'sish ta'minlangan. Bu o'zgarishlarga sabab sifatida ta'lim sohasiga bo'lgan davlat siyosati va yillar davomida xususiy investitsiyalarning ortib borayotganligini, shuningdek, aholi sonining o'sishi hamda ta'limga bo'lgan ehtiyoji va talabining ortganini keltirish mumkin.

Hududlar kesimida eng yuqori o'sish Toshkent shahrida kuzatilgan bo'lib, mazkur hududda 2020-yildagi 3,5 trln. so'mlik ta'lim xizmatlari 2024-yilda 15,9 trln. so'mga yetgan. Bu hajm respublika bo'yicha jami xizmatlarning qariyb 50 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Toshkent shahri ta'lim infratuzilmasi, xususiy oliy ta'lim muassasalari va xalqaro ta'lim tarmoqlarining faol rivojlanishi bilan ajralib turishini muhim omillar sifatida keltirish mumkin.

Samarqand, Farg'ona, Toshkent viloyatlari va Namangan viloyatlarida ham yuqori o'sish qayd etilgan. Masalan, Farg'ona viloyatida ko'rsatkich 2020-yildagi 564,3 mlrd. so'mdan, 2024-yilda 1754,3 mlrd. so'mga oshgan.



Nisbatan past ko'rsatkichlar Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida kuzatilgan. Sirdaryo viloyatida 2024-yilda ta'lim xizmatlari hajmi 309,3 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, bu respublika bo'yicha eng past natijadir. Bu holat ushbu hududlarda ta'lim xizmatlari infratuzilmasini, xususi ta'lim xizmatlari va ta'limga bo'lgan talab darajasini oshirish bo'yicha qilinadigan ishlar mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, barcha hududlarda ta'lim xizmatlari hajmida ijobiy o'sish kuzatilgan. Bu mamlakatda ta'lim sektorining raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish va xalqaro ta'lim standartlariga moslashuv siyosati natijasidir. Shu bilan birga, past ko'rsatkichli hududlarda ta'lim infratuzilmasiga sarmoyalarni ko'paytirish va mahalliy xususi ta'lim loyihalarini rag'batlantirish chora-tadbirlarini ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Bevosita ta'lim xizmatlarini o'zini tahlilini ko'riladigan bo'lsa ularning jami ko'rsatilgan bozor xizmatlaridagi ulushi so'nggi yillarda quyidagi ko'rsatkichlarni namoyon etgan (3-jadval).

3-jadval. Ta'lim xizmatlari hajmining ko'rsatilgan jami bozor xizmatlaridagi ulushi (yillik)

| Yil  | Ko'rsatilgan jami bozor xizmatlari hajmi (mlrd.so'm) | Ta'lim xizmatlari hajmi (mlrd.so'm) | Jami xizmatlar hajmidagi ulushi (%) |
|------|------------------------------------------------------|-------------------------------------|-------------------------------------|
| 2020 | 219978,5                                             | 8 539,4                             | 3,88                                |
| 2021 | 284388,1                                             | 12 102,5                            | 4,26                                |
| 2022 | 366891                                               | 15 858,4                            | 4,32                                |
| 2023 | 649806,4                                             | 24 533,1                            | 3,78                                |
| 2024 | 827659,5                                             | 31 975,0                            | 3,86                                |

Jadval tahlili bo'yicha 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda ta'lim xizmatlari hajmi barqaror o'sib borgan. Agar 2020-yilda bu ko'rsatkich 8 539,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, u 31 975,0 mlrd. so'mga yetgan, ya'ni besh yil davomida deyarli 4 barobarga o'sgan. Bu ta'limga bo'lgan talabning oshganini, aholining ta'lim xizmatlariga qiziqishi ortib borayotganini va davlatning ushbu sohaga ajratayotgan resurslarining kengayganini ko'rsatadi.

Biroq, ta'lim xizmatlarining jami xizmatlar hajmidagi ulushi nisbatan barqaror bo'lib qolmoqda — 2020-yildagi 3,88 foiz ko'rsatkich 2024-yilda ham deyarli o'zgarmay, 3,86 foizni tashkil qilgan. Bu esa, ta'lim sektori o'sayotgan bo'lsa-da, boshqa xizmat sohalarining, xususan, turar-joy va ovqatlanish xizmatlari, transport, savdo, aloqa hamda moliyaviy xizmatlarining ham tez sur'atlarda rivojlanayotganini, mazkur xizmat turlarida raqamlashtirish, modernizatsiya hamda xalqarolashuv jarayonlarining intensivlashib borayotganini anglatadi.

Umuman olganda, ta'lim xizmatlarining o'sish sur'ati ijobiy baholanadi, ammo uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, raqobatbardoshligi hamda ta'lim sifatini ta'minlash uchun strategik yondashuvlar, klasterlashuv, raqamlashtirish, xalqarolashuv, ta'limning keng turlarini, xususan masofaviy hamda dual ta'lim tizimlarini keng joriy qilish, ta'limga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va xususi sektor ishtirokini kuchaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim tizimida ta'lim tashkilotlari tomonidan an'anaviy ravishda faoliyat davomida bir qancha turdagi ta'lim xizmatlari ko'rsatiladi, xususan daromadlilik darajasi yuqoriligi bo'yicha xususi oliy ta'lim xizmatlari, xususi maktablar va litseylar, chet tillarini o'qitish markazlari, professional o'quv markazlari va kurslar, onlayn ta'lim platformalari, davlat oliy o'quv yurtlari (kontrakt asosida), davlat maktablari (bepul ta'lim asosida), ta'lim bo'yicha konsalting va viza xizmatlari, maktabgacha ta'lim muassasalari (xususi bog'chalar) xizmatlari va boshqa turdagi xizmatlardan iborat.

Bu o'rinda oliy ta'limning ta'lim xizmatlari tarkibidagi faoliyati muhim ahamiyatga ega, xususan, OTMlar ta'lim klasteri yadrosi sifatida faoliyat olib borishi jarayonida ularning xizmat turlari hamda sifati va raqobatbardoshligi bir muncha ijobiy natijalarni keltirishi mumkin. Ular tomonidan quyidagi xizmatlar, ya'ni to'lov-kontrakt asosida ta'limning turli darajadagi xizmatlari; xalqaro ta'lim dasturlari va qo'shma fakultetlar doirasidagi ta'lim xizmatlari; ixtisoslashtirilgan qisqa muddatli kurslar va malaka oshirish dasturlari; ilmiy-tadqiqot ishlari va grantlar asosidagi ta'limiy-ilmiy xizmatlar; ta'lim, tadbirkorlik hamda biznes bo'yicha konsalting va ekspertiza xizmatlari; OTMning asosiy kampuslari, ARMLari hamda axborot texnologiyalari va ilmiy markazlari doirasidagi ijara va infratuzilmaviy xizmatlar hamda o'quv-uslubiy ta'minot doirasidagi nashr ishlari va IT mahsulotlar yaratish xizmatlari va boshqalarni keltirish mumkin (4-jadval).

4-jadval. Ta'lim klasteri yadrosi bo'lgan OTMning ta'lim xizmatlari turlari<sup>9</sup>

| Ta'lim xizmati turi                                                     | OTM                                                                      | Ta'lim klasteri yadrosi bo'lgan OTM                                                          |
|-------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|
| Asosiy oliy ta'lim xizmatlari (bakalavriat, magistratura, doktorantura) | Ha                                                                       | Ha                                                                                           |
| Ilmiy tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar bo'yicha xizmatlar               | Cheklangan, individual ilmiy loyihalar doirasida                         | Hamkorlikdagi yirik loyihalar, ko'p tomonlama ilmiy hamkorlik                                |
| Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash                         | Torroq miqyosda, faqat o'z yo'nalishlari bo'yicha                        | Turli sohalarni qamrab oluvchi kompleks dasturlar orqali                                     |
| Startup va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash                   | Cheklangan, ilmiy va infratuzilmaviy shart-sharoitlarni nisbatan kamligi | Inkubatorlar, texnoparklar, investorlar bilan ishlash imkoniyatlari                          |
| Korxonalar bilan hamkorlikdagi amaliyotlar                              | Faoliyati tor sohalarda cheklangan                                       | Ko'plab tarmoq, biznes va ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiyalashgan amaliyotlar |
| Qo'shma ta'lim dasturlari (diplomlar)                                   | Kam holatlarda mavjud                                                    | O'zaro va xorijiy OTMlar bilan keng ko'lamli qo'shma dasturlar                               |
| Xalqaro hamkorlik                                                       | O'zining individual tashabbuslari bilan chegaralangan                    | Klaster orqali yirik xalqaro grantlar va almashinuv dasturlariga kirish imkoniyatlari        |
| Hududiy ta'lim va xizmat ko'rsatish salohiyati                          | O'z faoliyati joylashgan hudud bilan cheklangan                          | Hududiy iqtisodiyot va ta'lim tarmog'ini to'laqonli qamrab olish imkoniyati                  |
| Tadbirkorlikni rivojlantirish                                           | Kamroq holatlarda mavjud                                                 | O'zaro hamkorlikda yangi biznes-modellarni ishlab chiqish va joriy qilish                    |
| Kasbiy ko'nikmalarni oshirish markazlari                                | Cheklangan doirada                                                       | O'zaro resurslardan foydalanib ko'proq sohalarni qamrab oladi                                |

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, OTMlar ta'lim klasteri yadrosi sifatida faoliyat olib borganida ularning xizmat ko'rsatish imkoniyatlari va sifati sezilarli darajada kengayadi. OTMlarda esa, asosan o'z resurslari bilan nisbatan cheklangan holatda xizmat ko'rsatishi, ularning ilmiy, amaliy va xalqaro faoliyatlari individual tashabbuslarga bog'liq ekanligi namoyon bo'lmoqda. Aksincha, klaster shaklida faoliyat olib boriladigan tizimda esa, ilmiy-tadqiqot, startaplar va xalqaro hamkorlik birmuncha kengayadi; talabalar uchun malaka oshirish, amaliyot va ish bilan ta'minlanish imkoniyatlari ortadi; ta'lim sifati, innovatsion yondashuv va hududiy iqtisodiyotga ta'sir ham kuchayadi. Natijada xizmatlar sohasida ta'lim xizmatlarining ulushi ham ortib boradi.

Taklif va tavsiyalar o'rnida mintaqalar o'rtasida mavjud tafovutlarni kamaytirish va kam rivojlangan hududlarda xizmatlar salohiyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha strategik chora-tadbirlar sifatida hududlarda ta'lim klasterlarini tashkil etish, shakllanishi va takomillashishi uchun zarur shart-sharoitlarni yo'lga qo'yish, OTMlarning hamda klaster ishtirokchilarining ta'lim klasterini tashkil etish bo'yicha xususiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini amalga oshirish, keng miqyosda ta'lim sohasida klasterlash mexanizmlarini joriy etish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirishni keltirish mumkin.

Shu bilan birga, past ko'rsatkichli hududlarda ta'lim infratuzilmasiga sarmoyalarni ko'paytirish va mahalliy xususiy ta'lim loyihalarini rag'batlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ham samarali natijalarni ta'minlashi mumkin.

Shuningdek, ta'lim klasterlari orqali ta'lim tizimida resurslardan birgalikda foydalanish, hamkorlikda o'qitish va qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish OTMlar o'rtasidagi raqobatni emas, balki hamkorlikni rivojlantiradi. Bu esa, O'zbekiston ta'lim tizimining strategik maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

<sup>9</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. To'xliyev N., Xolmatov N., Ermamatov Sh., Xaqberdiyev Q. O'zbekiston iqtisodiyoti. Darslik. T.: O'zbekiston, 2018.-488 b.
2. H.Tўхлиев., Қ.Қуролов. Ўзбекистонда олий таълим тизими ривожланиши миқдор ва сифат баҳолаш / Монография/ "Ilm-Ziyo-Zakovat" нашриёти, Тошкент – 2018. 128 б.
3. И.С.Очилов. Кластер тизимида инновацион самарадорлик масалалари. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журналы. № 2, март-апрель, 2019 йил. 1-9 б.
4. Инновациялар ва кластерлаштириш иқтисодий тараққиёт кафолати / Б.Усмонов, Ф.Раҳимов, У.Шуқуриллаев. – Тошкент : KALEON PRESS, 2022. – 176 б.
5. A.A. Khamidova. Organizational-economic mechanism of educational services market development. Journal of Humanity and Intelligence. № 02/06. 2023. 317-319 p.
6. J.G'afforov. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim xizmatlari sohasining umumiy ko'rinishi. Iqtisodiyot va ta'lim, 25(2), 270–274.
7. M.Худойкулов. (2024). Кластер тизимининг иқтисодий ва технологик жараёнларини самарали шакллантириш таъйинлари. Iqtisodiyot va ta'lim, 25(2), 256–263.
8. B.Sh.Musayev. Oliy ta'lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ'ib qilish mexanizmini takomillashtirish. 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti 08.00.11 – Marketing. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand – 2024. 28 b.
9. Delgado, M. (2020). The Co-location of Innovation and Production in Clusters. Industry and Innovation, 27(8), 842-870.
10. Yuzhuo Cai1, Cui Liu. The roles of universities in fostering knowledge-intensive clusters in Chinese regional innovation systems. Science and Public Policy (2014) pp. 1–15 doi:10.1093/scipol/scu018.
11. Типология университетов, модели и инструменты организационного развития. Под ред. В.С. Ефимова. – Красноярск : Сиб. федер. ун-т, 2018. – 52 с.
12. <https://review.uz/oz/post/infografika-razvitie-sfer-uslug-v-uzbekistane-v-20172024-gg>.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)



# YASHIL

**IQTISODIYOT & TARAQQIYOT**  
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>